

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi

Qo‘qon universiteti talabasi

E-mail: moxiratojikarimova660@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi zamon talablariga mos ta’lim berish uchun boshlang‘ich ta’limda qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta noan’anaviy usullardan foydalanish ahamiyati haqida fikr yuritilgan yana maqolada rivojlanib borayotgan O‘zbekistondagi yangi islohotlar, olib borilgan yangiliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, yangi innovatsion loyihalar haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga amalga oshirilgan islohotlar va kelajakdagi yangilanishlar haqida ham g‘oyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, rivojlanayotgan mamlakat, Intellektual, innovatsiya, Zamonaviy ta’lim, ilm-fan, pedagog, Ta’lim texnologiyasi.

ABSTRACT

This article reflects on the importance of using several non-traditional methods that can be used in primary education to provide education in accordance with the requirements of the present time. Information about new innovative projects is discussed. At the same time, ideas about the reforms implemented and future updates are also presented.

Keywords: Education, developing country, Intellectual, innovation, Modern education, science, pedagogue, Educational technology.

АННОТАЦИЯ

В данной статье размышляется о важности использования ряда нетрадиционных методов, которые могут быть использованы в начальном образовании для обеспечения образования в соответствии с требованиями настоящего времени. Приводятся сведения о новых инновационных проектах. В то же время также представлены идеи о реализованных реформах и будущих обновлениях.

Ключевые слова: Образование, развивающаяся страна, Интеллектуальность, инновации, Современное образование, наука, педагог, Образовательные технологии.

Yurtimizda qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar yangilanayotgan O‘zbekiston qiyofasini jahondagi nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakat ekanligini yaqqol namoyon etib kelmoqda. Ta’lim sohasidagi islohotlar ham keyingi besh yilda yangi qiyofa kasb etganligini faxr bilan e’tirof eta olamiz. Birgina dalil, Sh.M. Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridanoq ilm-fanga, ta’limga juda katta e’tibor qaratganidir. Mamlakat rahbarining Fanlar Akademiyasi a’zolari, olimlar, professorlar bilan uchrashib, shaxsan suhbatlashgan vaqtida, chindan ham respublikamizda ilmfan inqirozga uchragan davri ekanligini yaxshi bilamiz. Bu uchrashuv aytish mumkinki, ilm-fanga yangidan jon bag‘ishladi. Professorolimlarning mashaqqatli mehnati, mamlakat rivojiga asosiy hissa qo‘shadigan e’tirofga loyiq xizmatlarini munosib baholashga oid qator farmon va qarorlar chiqarildi. Natijada, fanimiz yana shiddat bilan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tdi. Aytish mumkinki, ilm-fan va ta’lim sohasidagi islohotlar hamon jadal davom etmoqda. Maktablarda ham o‘quvchilarga yaxshi bilim yetkazib berish borasida chora tadbirlab olib borildi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Atoqli ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan hikmatli so‘zlarini men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Keyingi yillarda masalaga mana shunday yondashuv bizning ushbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi. Chindan ham, agar biz ta’limni o‘zgartirsak, ta’lim insonni o‘zgartiradi. Inson o‘zgarsa – butun jamiyatimiz o‘zgaradi. Intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q”. Bunday da’vatli so‘zlar albatta har qanday ilm ahliga, qolaversa yoshlarga ruhiy madad bo‘ladi. Binobarin, oliy ta’lim sohasidagi har bir yangilikni ham avvalo maktabdan, qolaversa, boshlang‘ich ta’limdan boshlash zarurligi yaqqol anglashilmoqda. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 16 iyundagi oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonilariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 martdagi № 78-F sonli farmoyishiga muvofiq tashkil etilayotgan “Boshlang‘ich talim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg‘or tajribalar” mavzusidagi mazkur Xalqaro ilmiy anjuman bu borada o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi. Mohiyat e’tibori bilan unda yechimini kutayotgan muammolar qatorida zamonaviy ta’limda umumilliy va ummumadaniy qadriyatlar o‘rni, boshlang‘ich ta’lim sifat va samarodorligini oshirish strategiyasi, XXI asrda boshlang‘ich ta’lim va raqamli texnologiya, boshlang‘ich ta’limdagи ilg‘or

tajribalar – yangi O‘zbekistondagi Uchinchchi Renessans poydevori kabi kengqamrovli masalalar haqida fikr yuritilishi yoshlarimizning ijtimoiy-siyosiy ongi, ma’naviy olami hamda tafakkuridagi yangilanishga albatta, keng yo‘l ochadi.

Hozirgi kunda maktab va maktab o‘qituvchilarining asosiy maqsadi o‘quvchilarga yangi noan’naviy dars usullaridan foydalanib ta’lim berish va tarbiyalashdir. Har bir ishning poydevori mustahkam bo‘lsa ko‘zlangan maqsadga oson erishiladi. Kelajak avlodimiz bo‘lgan yoshlarga hozirgi zamon talablariga mos, dunyo yoshlari bilan har sohada tenglasha oladigan o‘zining iqtidori, qobilyati, salohiyati bilan O‘zbekiston deya atalmish vatanimizning nomini yanada yuksaklarga ko‘taradigan darajada ta’lim tarbiya berishni boshlang‘ich ta’limdan boshlashimiz juda ham muhimdir. Shu maqsadni inobatga olib barcha maktablar boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish hozirgi zamon talabiga juda mos keladi. Har bir o‘quvchi o‘ziga hos iqtidor va qobilyatga ega. Ularni iqtidor va qobiliyatini yuzaga chiqarish va yanada rivojlantirish o‘qituvchining kasb mahoratiga ijodkorligiga va o‘z ustida tinmay ishlashiga va dars o‘tish metodiga bog‘liq. O‘qituvchi pedagogik mahoratiga erishishi uchun avvalo ijodkor bo‘lishi kerak. Ijodkor o‘qituvchi albatta boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalana oladi va har bir dars o‘quvchilar ongida muxrlanib qoladi. Yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanib ta’lim berish o‘quvchilarni erkin fikrlashga, qobilyatlarini namoyon qilishga, nutqini rivojlantirishga, bilim olish va unga erishish uchun tinmay izlanishga, vatanparvarlikga, tengdoshlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lib ular bilan o‘z fikrlarini almasha olishga o‘rgatadi.¹

Zamonaviy ta’limning eng muhim elementlari qadimgi davrlardan kelib chiqqan. O‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va vositalari o‘quv jarayoni mazmunini tahlil qilishda qo‘llaniladigan an’naviy kategoriyalardir. Aynan mana shu toifalar pedagogik faoliyatning predmeti sifatida vujudga kelib, muayyan fan, mutaxassislik yoki mutaxassislik bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mustaqil fikrlaydigan, to‘g‘ri va ijobjiy ish tuta oladigan vatanparvar insonlarni shakllantirish va tarbiyalash zarur”, ²deydi. Darhaqiqat, yoshlar zamonaviy ilm-fan va texnikani umuman o‘rganishi mumkin. Ularning ilm-fan yutuqlarini baham ko‘rmay turib, yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun sharoit yaratib bera olmaymiz. Hozirgi kunda ma’lumki, jahon pedagogikasida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasining 12 xil ko‘rsatkichlari mavjud.

¹ saidazim688@gmail.com

² Shavkat Mirziyoyev

Pedagogika - bu texnologik imkoniyatlar, inson salohiyati va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish uchun barcha o‘qitish va o‘qitish jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli usulidir.

Ta’lim texnologiyasi tushunchasi YuNESKO tomonidan quyidagicha ta’riflangan: “Ta’lim texnologiyasi – ta’lim shakllarini optimallashtirish uchun inson va texnik resurslar va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘rganish va bilim jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli”-dir. Pedagogik texnologiyaning uslubiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: texnologik sxema, ilmiy asos, izchillik, boshqaruvi, samaradorlik, takroriylik. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari yaxlit tizimni ifodalaydi, bunda ta’lim maqsadlariga asoslangan ko‘nikma va qobiliyatlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini rivojlantirish va muayyan axloqiy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan yaxshi tartibga solingan pedagogik harakatlar majmuasi shaklida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonning barcha ta’lim sohalarida islohotlarning yangi bosqichining to‘rt yilligi mobaynida ularni zamonaviy xalqaro talablarga javob beradigan sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun jiddiy asoslar qo‘yildi. Ta’limga bo‘lgan e’tibor juda rivojlandi, bundan unimli foydalanish uchun esa astoydil harakat qilib, o‘qish kerak. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar orqali izlanib, kelajagimiz poydevorlari bo‘lmish bolajonlarimizga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. S.Matjonov va boshqalar. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish. T. 2008 y
2. A.Suyumov, M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. T. 1995 y
3. M Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. T. 2010 y.
4. Zakharova N.I. Introduction of information technology in the educational process. "Primary school" magazine №1,2008g.
5. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o‘rni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 661-663.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinflarga ta’lim berish jarayonida zamonaviy metod va vositalarning ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 581-583.

8. Ikromjonovna, J. S. (2023). The role of folk tales and epic motives in the poetry of Usman Azim. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
9. Ikromjonovna, J. S. (2023). Peyzajning ijtimoiy-psixologik motivni anglatishdagi o‘rni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1, 97-99.
10. Jumanova, S. B. (2022). Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ona tili va o‘qish savodxonligi darslari orqali milliy qadriyatlarimizni o‘rganishning samarali omillari. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.
11. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". European journal of innovation in nonformal education, 2(4), 169-172.
12. Jumanova , S. (2023). Autumn motif in the poetry of Usman Azim. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2),
13. S Jumanova. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslari orqali dunyoviy bilimlarni egallashda o ‘zbek xalqining qadriyatlarimizning o‘rni Boshlang‘ich sinf o ‘quvchilarida universal ta’lim faoliyatini.2023
- 14.<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/talim-sohasi-mutaxassislarি-ozbekistondaumumiу-orta-talim-sifatini-oshirish>
- 15.<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/ozbekistondagi-talim-sifatini-oshirishimkoniyatlari>
- 16.<https://kun.uz/uz/news/2020/04/19/ozbekistonda-talim-sifatini-oshirishga-nimalar-tosiq-bolmoqdatahliliy-suhbat>